

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ҲАҚИДА АҲДЭШТИРИЛГАН. АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Гонашвили А.С. К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
2. Sodiqova Shohida Marxaboevna ZAMONAVIY IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich DIN SOTSILOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
4. Abduraxmonova Manzura MAKTABLARDA IJTIMOIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna “IJTIMOIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
6. Kayumov Kaxramon O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
7. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
8. Ахмедова Раъно ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
9. Masharipov Baxtiyar SIFATIY SOTSILOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
10. Рашидова Шахноза МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
11. То‘рахо‘jaeva Ra’no DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSILOGIK TAHLILI.....	84
12. Zaretdinova Nesibeli QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Abduraxmonova Manzura,

sotsiologiya fanlari doktori,

FDU ijtimoiy ish kafedra dotsenti.

e-mail: manzura.abdurahmanova.67@mail.ru

МАКТАБЛАРДА ИЖТИМОЙ ИШ FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868233>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonning yangi ijtimoiy himoya tizimida ijtimoiy ish faoliyati rivojlanishining konseptual jihatlari, ijtimoiy ishining ta’lim sohasiga qaratilgan maktabdagi ijtimoiy ishiga nazariy qarashlari, faoliyatni rivojlanishida jahon amaliyoti tajribalari, maktabdagi ijtimoiy ish, maktabdagi ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlar, qo‘llab-quvvatlash, oila, o‘quvchilar, o‘quvchilarning turli guruh qatlamlari, shu jumladan, ehtiyojmand o‘quvchilar va ularning jamiyatdagi o‘rni kabilar, ijtimoiy pedagogikaning qamrab olingan bilimlar sohasidan baholash (ekspertiza), ijtimoiy rivojlantirish, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta’lim, ularni korreksiya va rehabilitatsiya qilish, tuzatish va qayta o‘qitish, ta’limning ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish, shaxsni, guruhni faollashtirish, safarbar qilish ijtimoiy pedagogik tahmin (prognoz) qilish kabi fanlararo munosabatlari bilan farqlanishi ushbu tushunchalari mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabdagi ijtimoiy ish, qadriyat, insoniylik, ijtimoiy himoya tizimi, milliy agentlik, mehr, “Ixtisoslashgan tutingan oila”, “G‘amxo‘rlik guruhlari”, “Yoshlarga hamrohlik”, “Hayot maktabi”, “Inson” markazlari, fuqarolik institutlari, ijtimoiy pedagog, baholash, xavf ostidagi bolalar.

Абдурахманова Манзура,

доктор социологических наук,

Доцент кафедры Социальной работы,

Ферганского государственного университета,

e-mail: manzura.abdurahmanova.67@mail.ru

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ В ШКОЛЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены концептуальные аспекты развития социальной работы в новой системе социальной защиты Узбекистана, теоретические взгляды на социальную работу в школах, ориентированные на образовательную сферу социальной работы, опыт мировой практики развития деятельности, социального обеспечения. работа в школе, социальная политика в школе, социальная защита, социальная помощь, социальные услуги, поддержка, семья, учащиеся, различные группы учащихся, в том числе малообеспеченные учащиеся и их

место в обществе, оценка (экспертиза) из области знаний, охватываемых социальной педагогика, социальное развитие, социальное воспитание, социальное образование, их коррекция и реабилитация, коррекция и перевоспитание, реализация социального заказа воспитания, активизация личности, группы, мобилизация, социально-педагогическое прогнозирование (прогнозирование) раскрывается сущность.

Ключевые слова: социальная работа в школе, ценность, гуманность, социальная защита, система, национальное агентство, доброта, «Специализированная приемная семья, «Группы опеки», «Сопровождение молодежи», «Школа жизни», центры «Инсон», гражданские учреждения, социальный педагог, оценка, дети в группе риска.

Abdurakhmanova Manzura,

Doctor of Sociological Sciences,

Associate Professor of the Department of Social Work,

Fergana State University,

e-mail: manzura.abdurahmanova.67@mail.ru

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL WORK IN SCHOOL

ABSTRACT

This article discusses the conceptual aspects of the development of social work in the new system of social protection of Uzbekistan, theoretical views on social work in schools, focused on the educational sphere of social work, and the experience of world practice in the development of activities and social security. work at school, social policy at school, social protection, social assistance, social services, support, family, students, various groups of students, including low-income students and their place in society, assessment (expertise) from the field of knowledge covered by social pedagogy, social development, social education, social education, their correction and rehabilitation, correction and re-education, implementation of the social order of education, activation of the individual, group, mobilization, socio-pedagogical forecasting (forecasting), the essence is revealed.

Key words: social work in school, value, humanity, social protection, system, national agency, kindness, “Specialized foster family, “care groups”, “youth support”, “school of life”, “Inson” centers, civil institutions, social teacher, assessment, children at risk.

KIRISH

Mamlakatimizda eng oliy qadriyat sifatida inson va insoniylik munosabatlarini barqarorlashtirish jarayoni, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ijtimoiy yordam, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish maqsadidagi yangi kasblardan bo‘lgan “ijtimoiy ish” kasbining shakllanishi va aniq makon va zamonda, ushbu kasbni O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimidagi rivojlanish konsepsiyasi, ijtimoiy muammolarning davlat ijtimoiy siyosatiga ta‘siri, yordamga muhtoj toifalarga oid soha va tarmoqlardagi ish yo‘nalishlari mavjud.


Darhaqiqat, Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilanib, shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘rasidagi farmoni asosida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ushbu ijtimoiy himoya milliy agentligining ustuvor vazifasi sifatida ota-ona mehriq muhtoj bolalarni tarbiyalash, yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramoqqa olish bo‘yicha “ixtisoslashgan tutingan oila” tizimi joriy etilishi, ixtisoslashgan 160 ta ta‘lim muassasasida bosqichma-bosqich “g‘amxo‘rlik” guruhlari tashkil qilinishi, ota-onasidan ayrilgan yigit-qizlarga ko‘maklashish tizimida “Yoshlarga hamrohlik” dasturi asosida ularni qo‘llab-quvvatlash 23 yoshgacha etib belgilanishi, ichki ishlar tizimidagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari “Hayot maktabi” sifatida qayta tashkil qilinishi va ular tarbiyasi og‘ir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo‘yicha kompleks xizmat ko‘rsatadigan maskanga aylantirilishi hamda yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga uy-joy berish masalalari “Inson” markazlari

tomonidan haqiqatda uy-joyga muhtoj yoshlar ro'yxati shakllantirilishi [1] bilan ta'minlashi ta'kidlab o'tildi.

Shuning uchun ham, yuqoridagilardan kelib chiqib, aynan bolani ijtimoiy himoyalashning muhim maydonlaridan biri bo'lganligi sababli, bolani xavf guruhiga tushib qolishini oldini olish maqsadida, unga oid muammolarni sotsiologik jihatdan o'rganish muhimdir.

METODOLOGIYA

Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi [2] (IFSW) va Xalqaro ijtimoiy ishchilar uyushmasi (IASSW) tomonidan ijtimoiy ishning global muammolari tadqiqida “ijtimoiy ish – bu amaliyotga asoslangan kasb va ijtimoiy o'zgarish hamda rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy intizom, ijtimoiy hamjihatlik va odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularni ozod qilish”ga qaratilgan faoliyat, deb ta'rif berilgan. Dunyoda ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining o'ziga xos tarkibi amal qilish, bajarish funktsiyalariga ko'ra tavsiflanishi [3] muayyan sohalarini qamrab olgan bo'lib, ularning bosh maqsadi insoniylik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining yo'nalishlari

Ta'lim va tarbiya tizimini modernizatsiyalash jarayonida umumiy ijtimoiy ishning ixtisoslashgan yo'nalishi bo'lgan “maktabda ijtimoiy ish kasbiy faoliyati” tushunchasiga oid qarashlar, ta'riflar, g'oyalar, xorijiy tajriba asosida yoritilgan. Dastlab, maktabda ijtimoiy ish amaliyoti 1906 -1907 yillarda AQSHning umumta'lim maktablarida Nyu-York shtati dasturi asosida Chikago, Boston, Xartford va Konnektikut shtatlarida o'z farzandlarining ijtimoiylashuvi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda oila va maktab o'rtasidagi yaqin hamkorlikka erishish uchun o'qituvchilar xizmati sifatida “uyga tashrif buyuradigan o'qituvchilar” nomi bilan tashkil etilgan faoliyat rivojlanishi natijasida e'tibor butun maktab muhitiga va o'quvchilarga qaratiladi.

ASOSIY QISM

Amerika va yevropalik olimlar M.Richmond, R.Smalle, J.Kulbert, R.Konstabel, N.Radin, I.Hare, J.Openxemer maktabdagi ijtimoiy ish xizmatining muhimligini quyidagicha “... tashrif buyuradigan o'qituvchi oila va maktab o'rtasidagi strategik pozitsiyani egallaydi, lekin bu yerda bundan boshqa foydalaniladigan yaxshi yo'l ham yo'q edi” [4], “... ijtimoiy ishning ixtisoslashgan shakli, umumta'lim maktabining o'quv dasturiga kiritilgan, alohida bolalarga maktab taklif qiladigan narsalardan foydalanishga yordam berish usulidir”[5], “... bolaning maktabdan tashqari hayotini maktabga bog'lash orqali o'qituvchining bola to'g'risidagi bilimlarini to'ldirish bo'lib, shunda u bolani butun borlig'icha o'rgana oladi va bolalarni o'zlari orziqib kutadigan hayotga o'rgatishlari uchun maktabga oila, jamoa va qo'shnilarining hayotini bilib olishga yordam berish bo'lsa,

ikkinchidan, tashrif buyuradigan o‘qituvchi ota-onalarga maktab talablarini tushuntiradi va bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini ta’minlashga e’tiborni qaratadi”[6], “... maktab – oila –jamoatchilik munosabatlarini shakllantiradi” [7], “... maktabdagi barcha bolalarning, ayniqsa, salohiyati to‘liq amalga oshirilmagan bolalarning rivojlanishi va o‘quvchilarni jamiyatga kelajakdagi rollari uchun maqbul bo‘ladigan darajada tayyorlashga ko‘maklashish”[8], “... hamma bolalarni o‘zlari yashayotgan dunyo va kelajakdagi hayotga tayyorgarlik ko‘rishi uchun ta’lim berish hamda o‘rganishga sharoit yaratish”[9] ekanligini ta’kidlaydilar. Fikrimizcha, ushbu ta’riflardan kelib chiqib, maktabdagi ijtimoiy ish kasbiy faoliyati bolalarni, o‘quvchilarni kelajakdagi ijtimoiy rollariga tayyorlash uchun madaniyat va qadriyatlar haqida ma’lumot berishga javobgar ekanligini anglash mumkin.

Maktab ijtimoiy ishiga mos keladigan nazariy yo‘nalishlarning mualliflari M.Richmond, K.Meyer, R.Simons, S.Aigner, L.Devis, A.Dunxam, D.Salibey, J.Epstein, S.Germain, U.Bronfenbrenner, J.Alderson, S.Sabatino, S.Apter, D.R.Dupper, L.Kostinlar bo‘lib, ular konsultatsiya, rollar, tashkiliy, kompetentlilik, tizimlar, ekologik nazariyalar va paradigmalarni asoslab, modellarni ko‘rsatib beradilar. Ularning fikricha, ushbu nazariyalarda o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlardan xabardor bo‘lish uchun yangi istiqbolga ehtiyoj borligi ilgari suriladi.

MDH olimlaridan J.Novikova [10], Yu.Solodovnikova [11], G.Medvedeva [12] lar esa ijtimoiy ishning axloqiy qadriyatlarga, inson va jamiyat faoliyatining rivojlanishida ijtimoiy ishning o‘rni va rolining ahamiyatiga, mutaxassisning ijtimoiy ish bo‘yicha kasbiy tayyorgarligini oshirish sharti sifatida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratsalar-da, ular tadqiqotlarida aynan maktabdagi ijtimoiy ish mazmuniga ahamiyat bermaganlar. Ijtimoiy ish nuqtai nazaridan ijtimoiy ta’lim fenomeni M.Galaguzova, S.Raschetina va boshqalar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Ularning fikricha, ijtimoiy tarbiya ijtimoiy – pedagogik yordam, individual muammolarni hal etishda ijtimoiy ko‘mak sifatida qaraladi. I.Zimnaya [13], V.Bogacheva, G.Kuznesovalar [14] “ijtimoiy pedagogika” va “ijtimoiy ish” tushunchalarini ajratishga harakat qilib, bu mutaxassislarning har biri o‘z vazifa va faoliyat sohalariga ega, deb hisoblaydilar.

Ijtimoiy ish bo‘yicha tadqiqotlar, nazariya va qarashlar sotsiologik tahlili asosida, maktabda ijtimoiy ish muammosi tadqiq etilib, muallif tomonidan maktabdagi ijtimoiy ish quyidagicha ilmiy ta’riflanadi: “Maktabda ijtimoiy ish–ijtimoiy ishning ixtisoslashgan (xususiy) shakli bo‘lib, ko‘p funktsionallik asosida o‘quvchilarni kelajakdagi ijtimoiy rollariga tayyorlash uchun sifatli ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan himoyalashga qaratilgan kasbiy faoliyat”.

Bugungi kunda dunyo miqyosida 50 dan ortiq mamlakatda maktabda ijtimoiy ish kasbiy faoliyati mavjud bo‘lib, ular 3 toifada:

1) o‘quvchilarda yuzaga keladigan (o‘qish muammolari, nogironlik, jismoniy va ruhiy salomatlik, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, o‘spirin yoshdagi homiladorlik);

2) oiladagi (oiladagi zo‘ravonlik, ajralish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, uysizlik (boshpanasizlik) va oilaviy (irsiy) kasalliklar);

3) maktab tizimidagi (xodimlarni kamsitish, haqoratlash va nomuvofiq intizom kabi ta’lim olishdagi to‘siqlarni yengib o‘tish) muammolari bilan shug‘ullanadilar.

Xususan, ushbu maqolada ijtimoiy ish xodimi ijtimoiy pedagog nomi bilan yuritilishi, aslida bu faoliyat turlari bir-biridan ko‘nikmalari bilan farqlanishi sotsiologik tadqiqotlar asosida ilmiy asoslangan. Jumladan, Rossiya maktablarida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy pedagogikaga [15] to‘xtaladigan bo‘lsak, maktabdagi ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogika maqsad, obyekt, mavzu, qamrab olingan bilimlar sohasi, fanlararo munosabatlari bilan farqlanishi ushbu tushunchalarning mohiyatini yanada ochib beradi (1-jadval).

1-jadval

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati va ijtimoiy pedagogikaning farqlanishi

Maktabdagi ijtimoiy ish	Ijtimoiy pedagogika
-------------------------	---------------------

Maqsadi	Maktabdagi ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlar, qo'llab-quvvatlash.	Ijtimoiy pedagogika-baholash (ekspertiza), ijtimoiy rivojlantirish, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta'lim, ularni korreksiya va reabilitasiya qilish, tuzatish va qayta o'qitish.
Ish obyekti	Oila, o'quvchilar, o'quvchilarning turli guruh qatlamlari, shu jumladan, ehtiyojmand o'quvchilar, jamiyat.	Ta'limning ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish, shaxsni, guruhni faollashtirish, safarbar qilish. Ijtimoiy pedagogikaga muhtoj bo'lgan shaxs. Ijtimoiy pedagogik tahmin (prognoz) qilish, baholash (ekspertiza)
Predmeti	Moddiy yordam, shaxsni ijtimoiy himoya qilish, qiyin hayotiy vaziyatda bo'lgan o'quvchilarga, kishilarga maslahat va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish .	Ijtimoiy-pedagogik jarayoni rivojlantirish, tarbiya, o'qitish, tuzatish (korryeyeksiya) yoki reabilitasiya. Ijtimoiy bashorat qilish, baholash (ekspertiza) usullari.
Qamrab olingan bilimlar sohasi	Ijtimoiy ish-ijtimoiy ta'minot, iqtisodiyot, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, huquq va tibbiyot bilim sohaslarining integratsiyasi.	Ijtimoiy pedagogika-pedagogika va sotsiologiya bilimlar sohasi integratsiyasi [16]

Ijtimoiy ish xodimi o'quvchilarning ma'lum qismi bilan individual ta'lim dasturlari va "xavf ostida" deb belgilangan o'quvchilar bilan faoliyat yuritishi orqali faoliyati keng bo'lib, o'quvchi bola orqali, bolaning atrof-muhitiga, oila muammolariga to'xtalib, uning muammosini yechish uchun jamiyat resurslarini jalb qilishga qaratilsa, ijtimoiy pedagog esa faqat tashqariga chiqmagan holda bolaning o'ziga, salohiyati oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, hamkorlik maktab va oilaning dinamik qismi bo'lib, maktab ijtimoiy ish xodimining an'anaviy roli "oila – maktab – mahalla – jamoatchilik" (fuqarolik institutlari) hamkorligini o'z ichiga oladi, chunki ular bola va oilani ijtimoiy, ta'limiy, psixologik, moddiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish uchun hamkorlik qiladi, bunda ular "oila – maktab – mahalla – jamoatchilik" (fuqarolik institutlari) muhiti o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni kesib o'tib, kuchli tomonlarga asoslangan jismoniy bog'lovchi rolini bajarishga xizmat qiladilar.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabdagi ijtimoiy ish keng qamrovli ixtisoslashgan amaliyot soha sifatida o'quvchini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari, shartlari, vosita va usullari orqali maqsadli va manzilli tezkor ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ularning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish, "oila – maktab – jamoatchilik" tizimi o'rtasidagi aloqa negizida har bir o'quvchining inklyuziv ta'limda to'laqonli shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor sanaladi. Shuning uchun "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarni pozitiv faollashtirish va ularni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy ishning o'rni va rolini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

Demak, maktab ijtimoiy ish xodimi o'quvchilar sifatli bilim olishida to'sqinlik qiluvchi omillar bilan kurashishda asosiy mutaxassis va yo'naltiruvchi kuch hamda jahon amaliyotida ham maktabdagi amaliy, pozitiv faoliyat, real natijaviylik ko'rsatgan yo'nalish hisoblangan kasb sifatida namoyon bo'lib uchta sohani, ya'ni: a) bola va oila darajasidagi ijtimoiy ish; b) turli turkumga ega bolalar (yoshi, jinsi, qiziqishlari jihatidan) guruhi bilan mashg'ullik; v) bolalarni turli jamoalar orasida, yashash joylaridagi faoliyatni takomillashtirishi taqozo etadigan ijtimoiy ishni qamrab oladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligidagi 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta'minlashga xizmat qiladi mavzusidagi videoselektor yig'ilishidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7041>. 20.02.2024
2. International federation of Social work (IFSW). 2014. Global definition of the social work profession approved by the ISFW general meeting and the IASSW general assembly in July 2014. Retrieved from <https://www.ifsw.org/what-is-social-work/global-definition-of-social-work/> Date of access: 15 July. 2020.
3. National Association of Social Workers (NASW) rasmiy veb saytidan olindi. <https://www.socialworkers.org/News/Facts/Types-of-Social-Work>.
4. Richmond M.E. (1922). What is social case work? An introductory description. New York, NY: RussellSage: Foundation.P.197-199. <https://archive.org/details/whatisocialcase00richuoft/page/26/mode/2up>
5. Smalley, R. (1947). School social work as part of the school program. Bulletin of the National Association of Social Workers, 22(3), P.51–54. (-51 p.). In Michael S. Kelly, James C. Raines, Susan Stone, and Andy Frey. School Social Work.An Evidence-Informed Framework for Practice 2010 by Oxford University Press <https://sng1lib.org/book/970805/9358c5>
6. <https://babel.hathitrust.org/ucgi/pt?id=mdp.39015028363680&view=1up&seq=14>
7. Constable R., Flynn J.P and McDonald Sh. 2002. School social work. Practice, Police, and Research Perspectives. Lyceum Books. – P.11 <https://archive.org/stream/schoolsocialwork05edunse#page/n7/mode/2up>
8. Radin N. (1975). A Personal Perspective on School Social Work. Social Casework. – P. 605-613.
9. Hare I. School Social Work and its Social Environment. Social Work in Education, Vol. 10 No. - 218 p.
10. Новикова Ж.А. Моральные ценности социальной работы (этико-философский анализ). Специальность 09.00.05 – Этика. Автореф дис-и на соискание ученой степени к.ф.н. – Смоленск, 2011.
11. Солодовникова Ю.Ю. Формирование иноязычной коммуникативной компетентности как условие совершенствования профессиональной подготовки специалиста социальной работы. 13.00.08 – Теория и методика профессионального образования. Автореф дис-и на соискание ученой степени к.п.н. – Курск, 2009.
12. Медведева Г.П. Социальная работа как вид деятельности общества. Специальность: 09.00.11. - социальная философия Автореф дис-и на соискание ученой степени д.ф.н. – М., 2011.
13. Зимняя И.А. Семья как объект социальной работы. – М.: Исслед. центр пробл. качества подгот. специалистов, 1993. – 189 с.
14. Богачева В.Г. Профессиональная социальная работа: личностно ориентированный подход. – 1999 г. С. 112-116.
15. <https://works.doklad.ru/view/3ojcbUorgxg.html>
16. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 81 b.
17. Abduraxmonova M.M. Maktabda ijtimoiy ish. Darslik. – Farg‘ona: «Poligraf Super Servis» MChJ, 2022. – 506 b.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000